



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi



TADQIQOTLAR



ILM-FAN



TEKNOLOGIYALAR

ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR NAZARIYASI

ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

2026



Google Scholar



zenodo



Andijan, Uzbekistan



+998335668868



<https://innoworld.net>



« ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR
NAZARIYASI » NOMLI ILMIY, MASOFAVIY,
ONLAYN KONFERENSIYASI TO'PLAMI

3-JILD 5-SON

Konferensiya to'plami va tezislari quyidagi xalqaro
ilmiy bazalarda indexlanadi



www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2026

**BUG'DOY YETISHTIRISHDA RAQAMLI VA INNOVATSION
TEKNOLOGIYALAR SAMARADORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH**

Turayeva Gulizahro

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Guliston davlat universiteti dotsenti

ORCID: 0000-0002-5764-315X

zakhroturaeva@gmail.com, +998 94 585 19 84

Annotatsiya. Qishloq xo'jaligida, xususan bug'doy yetishtirishda samaradorlikni oshirish bugungi kunda resurs cheklanganligi va iqlim o'zgarishi sharoitida dolzarb muammo hisoblanadi. Shu sababli raqamli va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish zarurati ortib bormoqda.

Mazkur tadqiqotda bug'doy yetishtirish samaradorligini baholashning kompleks yondashuvi taklif etilib, u iqtisodiy, texnologik va resurs omillarini yagona tizimda baholashga asoslanadi.

Kalit so'zlar: bug'doy yetishtirish, raqamli texnologiyalar, innovatsion texnologiyalar, kompleks baholash, integral indeks,

Kirish. Hozirgi globallashtirish sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini oshirish va resurslardan oqilona foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Jahon miqyosida aholining soni ortib borayotgani, iqlim o'zgarishlari hamda suv va yer resurslarining cheklanganligi qishloq xo'jaligida, ayniqsa bug'doy yetishtirish tizimida yangi yondashuvlarni joriy etishni taqozo etmoqda. Bug'doy strategik ahamiyatga ega bo'lgan asosiy oziq-ovqat mahsuloti hisoblanib, uni yetishtirish samaradorligini oshirish milliy oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. O'zbekiston sharoitida, xususan sug'orma dehqonchilik hududlarida bug'doy yetishtirish jarayonida suv tanqisligi, ishlab chiqarish xarajatlarining ortishi va hosildorlikning barqaror emasligi kabi muammolar kuzatilmoqda.

Asosiy qism. Bug'doy yetishtirishda raqamli va innovatsion texnologiyalarni joriy etish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Ushbu jarayonni ilmiy asosda baholash uchun ko'p omilli yondashuv zarur bo'lib, bunda iqtisodiy, texnologik va resurs ko'rsatkichlari o'zaro bog'liqlikda tahlil qilinadi.

1-jadval. Samaradorlik ko'rsatkichlarini tizimlashtirish

Tadqiqotda bug'doy yetishtirish samaradorligini baholovchi asosiy ko'rsatkichlar quyidagicha guruhlashtirildi:		
Ko'rsatkichlar guruhi	Asosiy indikatorlar	Mazmuni
Iqtisodiy	Rentabellik, foyda	Ishlab chiqarish natijadorligi
Texnologik	Raqamlashtirish darajasi	Innovatsiyalar joriy etilishi

Resurs	Suv va yer samaradorligi	Resurslardan foydalanish
Ishlab chiqarish	Hosildorlik	1 ga dan olingan hosil

Tadqiqotda bug‘doy yetishtirish samaradorligini baholovchi asosiy ko‘rsatkichlar iqtisodiy, texnologik, resurs va ishlab chiqarish guruhlariga ajratilgan bo‘lib, bu yondashuv baholash jarayonining kompleksligini ta‘minlaydi. Avvalo, iqtisodiy ko‘rsatkichlar rentabellik va foyda shlab chiqarishning yakuniy natijasini ifodalaydi hamda xo‘jalik faoliyatining samaradorligini aniqlovchi asosiy mezon hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkichlar orqali texnologiyalarni joriy etish natijasida olinayotgan iqtisodiy foyda baholanadi.

Texnologik ko‘rsatkichlar raqamlashtirish darajasi esa innovatsion jarayonlarning qanchalik keng joriy etilganligini aks ettiradi. Mazkur ko‘rsatkich bug‘doy yetishtirishda zamonaviy texnologiyalarning qo‘llanish darajasini aniqlash bilan birga, samaradorlikka ta‘sir etuvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Resurs ko‘rsatkichlari suv va yer samaradorligi ayniqsa O‘zbekiston sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki sug‘orma dehqonchilik hududlarida suv resurslarining cheklanganligi ishlab chiqarish samaradorligiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Shu bois resurslardan oqilona foydalanish darajasi umumiy samaradorlikni belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida bug‘doy yetishtirishda raqamli va innovatsion texnologiyalarni joriy etish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligi ilmiy jihatdan asoslab berildi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, an‘anaviy usullarga nisbatan innovatsion texnologiyalarni qo‘llagan xo‘jaliklarda hosildorlikning oshishi, resurslar sarfining kamayishi hamda iqtisodiy natijalarning yaxshilanishi kuzatiladi. Tadqiqotda taklif etilgan kompleks baholash yondashuvi asosida samaradorlikni ko‘p omilli tizim orqali baholash imkoniyati yaratildi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Bug‘doy yetishtirishda kompleks baholash tizimini joriy etish Qishloq xo‘jaligi korxonalarida samaradorlikni baholashda integral indeksdan foydalanish amaliyotini keng joriy etish maqsadga muvofiq.
2. Raqamli texnologiyalarni joriy etishni rag‘batlantirish Aniq dehqonchilik, GPS monitoring, aqlli sug‘orish tizimlarini joriy etuvchi xo‘jaliklar uchun subsidiya va imtiyozlar tizimini kengaytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni PF-5853. “Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasi to‘g‘risida”. 2019 yil 23 oktyabr.
2. Aliyev Ya.E. (2020). Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, resurslari va xizmatlari bozorlarini rivojlantirish. Toshkent.
3. Turayeva, G. (2025, December). Innovation efficiency in the grain sector. In International Conference on Medicine & Agriculture (Vol. 1, No. 3, pp. 54-56).



4. Turayeva, G. (2025, December). Assessment of wheat production sustainability based on the principles of the “green economy”. In International Conference on Business & Management (Vol. 1, No. 3, pp. 53-55).
5. Abdurasulovna, K. I., Ergashevich, Y. K., & Abdukhalilovich, S. A. (2018). Horizons and challenges of the silver nanoparticles application in the practical medicine. *European science review*, (7-8), 122-127.
6. Kamilova, I. A., Pakhomova, J. E., & Nadjmutdinova, D. K. (2020). Analysis of the role of 1G/2G polymorphism in the MMP1 gene in the development and clinical course of cervical intraepithelial neoplasia. *European Journal of Molecular and Clinical Medicine*, 7(2), 850-859.
7. Dilbar, N., Iroda, K., & Umida, S. (2022). The role of molecular genetic markers in the clinical course of cervical intraepithelial neoplasia.
8. Kamilova, I., & Umarov, A. (2025). The Role of Lipid Peroxidation and Activity of The Blood Antioxidant System in The Development of Postpartum Endometritis and Their Prognostic Significance. *International Journal of Medical Sciences And Clinical Research*, 5(05), 96-104.
9. Abdurasulovna, K. I. (2021, October). Effect Of A Combination Of Polymorphic Locus Of Genes For Detoxification Of Enzymes Of Estrogen Metabolism In The Risk Of Cervical Neoplasia. In The 8th International scientific and practical conference “Results of modern scientific research and development”(October 17-19, 2021) Barca Academy Publishing, Madrid, Spain. 2021. 523 p. (p. 51).
10. Kamilova, I. A. (2020). Individual prediction of the development of cervical intraepithelial neoplasia in women to medical and social risk factors. *Toshkent tibbiyot akademiyasi axborotnomasi*, (1), 112-115.
11. Abdurasulovna, K. I., & Oybekovna, K. S. (2025). Predicting preeclampsia in early pregnancy. *France-scientific review of the problems and prospects of modern science and education*, 1(4), 23-26.
12. Kamilova, I. A. (2021). The role of the genetic polymorphism of the gene-oncosuppressor TP53 rs 17884159 in women with cervical intraepithelial neoplasia. *Central Asian Journal of Medical and Natural Science*, 2(3), 31-36.
13. Akhmadzhonova, G., Nazhmutdinova, D., Negmatshoeva, K., & Iroda, K. (2024). Assessment of the Microbial Flora of the Genital Tract and the Morphofunctional State of the Endometrium in Antiphospholipid Syndrome. *New Visions in Medicine and Medical Science Vol. 2*, 184-193.